BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARIDA ANALITIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDOGOGIK SHART-SHAROITLARI .

(Tizimli yondashuv asosida nazariy model)

Amanova Gulxayo Dilmurod qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktaranti
Email:gulxayoamanova1107@gmail.com
ORCID:0009-0007-8566-0962

Annotatsiya. *Maqolada "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabalarida analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimli yondashuv asosida aniqlangan. Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimli-strukturaviy tahlil va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Natijada pedagogik shart-sharoitlarning to'rt guruhi ajratildi: tashkiliy-pedagogik, didaktik-mazmuniy, psixologik-pedagogik va axborot-texnologik. Ular maqsad, mazmun, jarayon va natija bloklaridan iborat yaxlit model tarkibiga kiritildi. Model bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda analitik fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *analitik fikrlash, pedagogik shart-sharoit, tizimli yondashuv, pedagogik model, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy tayyorgarlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ «НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»

(теоретическая модель на основе системного подхода)

Аннотация: *В статье на основе системного подхода определены педагогические условия развития аналитического мышления у студентов направления «Начальное образование». В исследовании использованы методы теоретического анализа, системно-структурного анализа и педагогического моделирования. В результате выделены четыре группы педагогических условий: организационно-педагогические, дидактико-содержательные, психолого-педагогические и информационно-технологические. Данные условия включены в целостную модель, состоящую из целевого, содержательного, процессуального и результативного блоков. Модель служит теоретической основой поэтапного развития аналитического мышления в профессиональной подготовке будущих учителей начальных классов.*

Ключевые слова: *аналитическое мышление, педагогические условия, системный подход, педагогическая модель, начальное образование, будущий учитель, профессиональная подготовка.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN STUDENTS OF THE PRIMARY EDUCATION PROGRAM

(A Theoretical Model Based on a Systems Approach)

Abstract. *The article identifies, on the basis of a systems approach, the pedagogical conditions for developing analytical thinking in students majoring in Primary Education. The study employed theoretical analysis, systemic-structural analysis and pedagogical modelling. Four groups of pedagogical conditions were distinguished: organisational-pedagogical, didactic-content, psychological-pedagogical and information-technological. These conditions were integrated into a holistic model comprising target, content, process and outcome blocks. The model provides a theoretical basis for the gradual development of analytical thinking in the professional training of pre-service primary school teachers.*

Keywords: *analytical thinking, pedagogical conditions, systems approach, pedagogical model, primary education, pre-service teacher, professional training.*

Kirish. Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha davlat hujjatlarida mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan[34]. Xalqaro miqyosida ham analitik fikrlash XXI asrning yetakchi kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi: Jahon iqtisodiy forumining 2023-yilgi hisobotida u ish beruvchilar uchun eng muhim asosiy ko'nikma deb baholangan [35].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun analitik fikrlash ikki jihatdan ahamiyatga ega. Birinchidan, u o'qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilar natijalarini baholash va qaror qabul qilish asosini tashkil etadi. Ikkinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda taqqoslash, tasniflash, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash kabi fikrlash operatsiyalarini shakllantirish aynan o'qituvchining shu sifatlariga bog'liq.

[34] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

[35] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Analitik fikrlash muammosi psixologiya va pedagogikada keng o'rganilgan. B. Blum taksonomiyasi va uning L. Anderson hamda D. Krathwohl tomonidan qayta ishlangan talqinida tahlil qilish yuqori darajadagi kognitiv jarayon sifatida ajratilgan .[36]

S.L.Rubinshteyn tafakkurni tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiya va umumlashtirish amallarining birligi sifatida talqin qilib, tafakkur jarayonlari insonning ongli faoliyatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.[37]

A.N.Leontyev faoliyat nazariyasida tafakkurni shaxsning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadigan va unga xizmat qiladigan ichki faoliyat sifatida izohlaydi. Uning qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki, analitik fikrlash muammoni anglash, maqsadni aniqlash, faoliyatni rejalashtirish va natijani baholash bosqichlarida faol namoyon bo‘ladi.[38]

P.Ya.Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasida ham analitik fikrlash muhim o‘rin tutadi. Olim aqliy harakat moddiy yoki moddiylashtirilgan tashqi harakatdan boshlanib, tashqi nutq orqali ichki aqliy rejaga o‘tishini asoslab bergan[39].

Ushbu nazariya talabalarda analitik amallarni avval sxema, jadval, klaster kabi tashqi tayanchlar yordamida bajarib, so‘ngra ularni mustaqil aqliy faoliyatga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

R.Ennis analitik fikrlashni tanqidiy fikrlashning asosiy komponenti sifatida baholab, uni dalillarni tahlil qilish, mantiqiy baholash va nimaga ishonish yoki nima qilish haqida asosli qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog‘laydi. Olim bu qobiliyatni rivojlantirish ta’lim jarayonida maxsus topshiriqlar, bahs-munozara va tahliliy faoliyat orqali amalga oshirilishi lozimligini ta’kidlaydi.[40]

Tadqiqot maqsadi - Tizimli yondashuv asosida “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalarida analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularni yaxlit nazariy model ko‘rinishida asoslash.

Tadqiqot vazifalari: Pedagogik shart-sharoitlarni tizimli yondashuv asosida guruhlash va ular orasidagi bog‘liqlikni ochib berish.Analitik fikrlashni rivojlantirishning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish.

[36] Anderson L. W., Krathwohl D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longman, 2001.
[37] Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psikhologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 s
[38] Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 s.
[39] Galperin P.Ya. Metody obucheniya i umstvennoye razvitiye rebyonka. – Moskva: Izd-vo MGU, 1985.
[40] Ennis R. H. A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities . Baron J. B., Sternberg R. J. (Eds.). Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. New York: W. H. Freeman, 1987.-P. 9-26.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, uning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. L. fon Bertalanfi umumiy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, tizim o'zaro bog'liq elementlar majmui bo'lib, uning xossalari alohida elementlar xossalarining oddiy yig‘indisiga teng emas [41].

Shu nuqtai nazardan, pedagogik shart-sharoitlar alohida-alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit majmua sifatida qaraldi. Shuningdek, Yu. K. Babanskiyning ta’lim jarayonini optimallashtirish g‘oyasi [42] va L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashlari [43] tayanch sifatida olindi.

TADQIQOT METODLARI	**Nazariy tahlil va umumlashtirish**	Analitik va tanqidiy fikrlash, pedagogik shart-sharoitlar hamda o‘qituvchi tayyorlash masalalariga oid psixologik-pedagogik adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar va xalqaro hisobotlar o‘rganildi.
	Tizimli-struk turaviy tahlil	Analitik fikrlashni rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismlari, ular orasidagi aloqalar va har bir qismning vazifasi aniqlandi.
	Taqqoslash va tasniflash	Turli mualliflar taklif etgan shart-sharoitlar o'zaro solishtirildi va umumiy belgilari bo‘yicha guruhlandi;
	Pedagogik modellashtirish	Aniqlangan shart-sharoitlar maqsad, mazmun, jarayon va natija bloklaridan iborat tarkibiy-funksional model ko‘rinishida ifodalandi


1-jadval.Tadqiqot metodlari.

“Pedagogik shart-sharoit” tushunchasi quyidagicha qabul qilindi: ta’lim jarayonining ko‘zlangan natijaga erishishini ta‘minlovchi, maqsadli tanlangan va o‘zaro bog‘langan tashkiliy, mazmuniy, metodik hamda muhit omillari majmui. “Analitik fikrlash” esa obyekt yoki vaziyatni tarkibiy qismlarga ajratish, ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan fikrlash faoliyati sifatida talqin etildi .

NATIJALAR

[41] Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. -New York: George Braziller, 1968.
[42] Бабанский Ю. К. Оптимизация процесса обучения: Общедидактический аспект. -М.: Педагогика, 1977.
[43] Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

Analitik fikrlashning tarkibiy qismlari. Adabiyotlar tahlili asosida talabalarni analitik fikrlashining 4 komponenti ajratildi:



2-jadval.Analitik fikrlash komponentlari

2. Pedagogik shart-sharoitlarning to'rt guruhi. Tizimli-strukturaviy tahlil natijasida shart-sharoitlar ta'lim jarayonining qaysi jihatiga ta'sir etishiga ko'ra to'rt guruhga ajratildi


Shart-sharoit guruhi	**Mazmuni**	**Amalga oshirish vositalari**
Tashkiliy-pedagogik	Analitik fikrlashni rivojlantirishning 1-4-kurslar bo'yicha bosqichma-bosqichligi va fanlararo integratsiyasi; nazariy ta'limning pedagogik amaliyot bilan uzviyligi	Kafedralararo kelishilgan topshiriqlar tizimi; amaliyot kundaliklarini tahliliy yuritish; ustoz-shogird juftliklari
Didaktik-mazmuniy	O'quv mazmunini kasbiy-pedagogik vaziyatlar, keyslar va muammoli topshiriqlar bilan boyitish;	Boshlang'ich sinf darslari videoyozuvlari tahlili; o'quvchi ishlarini tahlil qilish; keys-stadi to'plami

	topshiriqlarni Blum taksonomiyasining yuqori darajalariga yo'naltirish	
Psixologik-pedagogik	Savol berish va fikr almashishga undovchi, xatoga sabr bilan munosabatdagi muhit; yaqin rivojlanish zonasiga mos murakkablashib boruvchi topshiriqlar; muntazam refleksiya	Guruhli munozara; refleksiv esse va o'z-o'zini baholash varaqalari
Axborot-texnologik	Raqamli vositalarni ma'lumotlarni tuzilmalash, vizuallashtirish va tahlil qilish uchun maqsadli qo'llash; texnologik-pedagogik-mazmuniy bilim integratsiyasi	Aqliy xaritalar, ma'lumotlarni vizuallashtirish dasturlari; LMS dagi onlayn munozara forumlari; media-matnlar tahlili

3-jadval.Pedogogik shart sharoitlar

3. Tarkibiy-funksional model. Aniqlangan shart-sharoitlar to'rt blokdan iborat model tarkibiga kiritildi (1-rasm). *Maqsad-metodologik blok* ijtimoiy buyurtma, maqsad hamda tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni belgilaydi. *Mazmuniy blok* analitik fikrlashning 4 komponentini va fanlararo mazmunni qamrab oladi. *Jarayonli-texnologik blok* uch bosqichni o'z ichiga oladi: yo'naltiruvchi (tahliliy faoliyatga motivatsiya va namunalar bilan tanishtirish), operatsional (tahlil usullarini kasbiy vaziyatlarda mashq qilish) va ijodiy-refleksiv (mustaqil tahlil va o'z xulosalarini baholash). *Natijaviy-baholovchi blok* mezonlar, ko'rsatkichlar va rivojlanish darajalarini belgilaydi.

Pedagogik shart-sharoitlar modelda alohida blok emas, balki jarayonli-texnologik blokning samarali ishlashini ta'minlovchi tizim sifatida joylashgan. Natijaviy blokdan maqsadga qaytuvchi teskari aloqa esa diagnostika natijalariga ko'ra jarayonni korreksiya qilish imkonini beradi.



1-rasm. Analitik fikrlashni rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli

To‘rt blok ketma-ket bog‘langan; pedagogik shart-sharoitlar jarayonli-texnologik blokni ta’minlaydi, natijaviy blokdan esa maqsadga teskari aloqa qaytadi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar analitik fikrlashni yuqori darajadagi kognitiv jarayon deb hisoblovchi yondashuvlarga mos keladi . Modelda analitik fikrlash faqat kognitiv operatsiyalar bilan cheklanmaydi: motivatsion va refleksiv komponentlarning kiritilishi P. Facione[44] ta’kidlagan fikrlash moyilliklari g‘oyasiga tayanadi . Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ayniqsa muhim, chunki u o‘quvchilarga tahliliy fikrlash namunasini o‘z xulq-atvori orqali ko‘rsatadi.

Taklif etilgan modelda esa 4 guruh shart-sharoit bir-birini to‘ldiradi: masalan, keys-stadi kabi didaktik vosita psixologik xavfsiz muhit bo‘lmasa, kutilgan samarani bermaydi; raqamli vositalar esa mazmunan tahliliy topshiriqlarsiz faqat texnik mashg‘ulotga aylanib qoladi. Bu xulosa P. Abrami va hamkorlarining meta-tahlili

[44] Facione P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). -Millbrae, CA: California Academic Press, 1990.

natijalari bilan hamohang: unga ko'ra, fikrlashni rivojlantirishda muloqot, haqiqiy muammolar va murabbiylikning birgalikda qo'llanishi eng yuqori samara bergan [45].

Pedagogik amaliyot bilan uzviylikni tashkiliy shart sifatida ajratish talabalarning nazariy bilimini real sinf vaziyatlarini tahlil qilishga ko'chirishiga xizmat qiladi.

Taklif etilgan model nazariy tahlil va modellashtirish asosida ishlab chiqilgan, uning samaradorligi hali empirik jihatdan tekshirilmagan. Shuningdek, shart-sharoitlar har bir guruhining natijaga qo‘shadigan alohida hissasi aniqlanmagan. Bu masalalar keyingi tajriba-sinov ishlarida o‘rganilishi lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining analitik fikrlashi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-faoliyatli va refleksiv-baholovchi komponentlardan tashkil topgan integrativ kasbiy sifatdir.

2. Analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 4 guruhga ajratiladi: tashkiliy-pedagogik, didaktik-mazmuniy, psixologik-pedagogik va axborot-texnologik. Ular faqat bir butun tizim sifatida qo‘llanganda kutilgan samarani beradi.

3.Ishlab chiqilgan tarkibiy-funksional model maqsad-metodologik, mazmuniy, jarayonli-texnologik va natijaviy-baholovchi bloklardan iborat bo‘lib, teskari aloqa orqali jarayonni korreksiya qilish imkonini beradi.

Model “Boshlang‘ich ta’lim” yo'nalishi bo'yicha o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirishda, pedagogik amaliyotni tashkil etishda nazariy asos sifatida foydalanilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda analitik fikrlash darajasini aniqlovchi diagnostik vositalarni ishlab chiqish va modelning samaradorligini tajriba-sinov orqali tekshirish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

[45] Abrami P. C., Bernard R. M., Borokhovski E., Waddington D. I., Wade C. A., Persson T. Strategies for teaching students to think critically: A meta-analysis . Review of Educational Research. -2015. -Vol. 85, No. 2. - P. 275-314.

3. Anderson L. W., Krathwohl D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longman, 2001.

4. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psikhologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 s.

5. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 s.

6. Galperin P.Ya. Metody obucheniya i umstvennoye razvitiye rebyonka. – Moskva: Izd-vo MGU, 1985.

7. Ennis R. H. A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities // Baron J. B., Sternberg R. J. (Eds.). Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. -New York: W. H. Freeman, 1987.-P. 9-26.

8. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. -New York: George Braziller, 1968.

9. Бабанский Ю. К. Оптимизация процесса обучения: Общедидактический аспект. -М.: Педагогика, 1977.

10. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

11. Facione P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). -Millbrae, CA: California Academic Press, 1990.

12. Abrami P. C., Bernard R. M., Borokhovski E., Waddington D. I., Wade C. A., Persson T. Strategies for teaching students to think critically: A meta-analysis . Review of Educational Research. -2015. -Vol. 85, No. 2. - P. 275-314.